

QAYSARLIK, MUSTAQILLIK VA YOLG'IZLIKNING BOLALARDAGI KREATIVLIKKA TA'SIRI

Urazaliyeva Kamola Mirali qizi

Innovatsion texnologiyalar universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi assistent o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18965705>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalardagi qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlik kabi psixologik xususiyatlarning kreativ fikrlash va ijodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy manbalar, uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari hamda mashhur shaxslar hayotiy tajribasi o'rganildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim yo'nalishida olib borilgan pedagogik kuzatuvlar va bo'lajak tarbiyachilar bilan o'tkazilgan bahs-munozaralar natijalari ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qaysarlik bolalarda qat'iyat va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, mustaqillik esa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ma'lum darajadagi yolg'izlik esa chuqur tafakkur jarayonini kuchaytirib, yangi g'oyalar paydo bo'lishi uchun imkon yaratadi. Maqolada pedagoglar va ota-onalar uchun bolalardagi ushbu xususiyatlarni to'g'ri yo'naltirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qaysarlik, mustaqillik, yolg'izlik, kreativlik, bolalar rivojlanishi, ijodiy muvaffaqiyat, uzoq muddatli tadqiqot, psixologik xususiyatlar.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda kreativ fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar muhim o'rin egallaydi. Bunday sifatlarning shakllanishi esa ko'p jihatdan bolalik davrida rivojlanadigan psixologik xususiyatlar bilan bog'liq. Bolalar rivojlanish jarayonida turli xulq-atvor va psixologik xususiyatlarni namoyon qiladi. Ba'zi xususiyatlar ko'pincha salbiy sifat sifatida baholansa-da, aslida ular shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lishi mumkin. Xususan, qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlikka moyillik kabi xususiyatlar ko'pincha ota-onalar yoki pedagoglar tomonidan muammo sifatida qabul qilinadi. Ammo zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu xususiyatlar to'g'ri yo'naltirilgan taqdirda bolalarning ijodiy rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkin.

Ko'plab mashhur olimlar va ixtirochilarning hayotiy tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Ular bolalik davrida mustaqil fikrlashga moyil bo'lgan, o'z qarashlarini qat'iyat bilan himoya qilgan va ko'pincha yolg'iz ishlashni Afzal ko'rgan shaxslar bo'lgan. Shu sababli bolalardagi qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlik xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish muhim hisoblanadi.

Haqiqiy odamlar musaqil fikrga ega bo'ladi. Yolg'iz bo'lish, asosan, shaxsiy tanlovdur.

Ular tanlangan yolg'izlikdan shikoyat qilmaydilar, aksincha, ular undan oziqlanadilar.

Bunday insonlarning shaxsi uchun yolg'izlik halokat emas, balki ijodiy qurilish jarayonidir. Yolg'izlik ular uchun qafas emas, ko'tarilish dastagidir.

Bu odamlar atrofdagilar bilan juda quyuq munosabat o'rnatmasligi mumkin, ammo ular o'zlari bilan mustahkam muloqot qilish hislatiga ega. Ularning tashqi aloqalari zaif bo'lishi mumkin, biroq ichki aloqalari o'ta kuchlidir. Ijodiy yolg'izlik innovatsion yutuqlarning asosidir.

Mashhur ixtirochi Nikola Tesla shunday tushuntiradi: "Inson o'zini tashqi dunyodan ajratib, uzluksiz yolg'izlikda bo'lsa, aqli o'tkirroq ishlaydi. O'ylash uchun ulkan laboratoriyaga hojat yo'q. Ijodiy fikrlashni zaiflashtiradigan tashqi ta'sirlardan o'zimizni ajratsak, asl fikrlar unib chiqadi. Yolg'iz qoling! G'oyalar sukutda tug'iladi!"

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada bolalardagi qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlikning kreativ rivojlanishga ta'sirini o'rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Adabiy tahlil metodi orqali psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy manbalar o'rganildi. Bolalar psixologiyasi, ijodiy rivojlanish hamda shaxs shakllanishiga oid ilmiy ishlarda berilgan nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Tarixiy-biografik tahlil orqali mashhur ixtirochilar va olimlarning hayoti o'rganildi.

Xususan, Nikola Tesla, Albert Enshtein, Stiv Jobs kabi shaxslarning bolalik davridagi xususiyatlari hamda ularning ijodiy faoliyatidagi o'xshashliklar tahlil qilindi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv metodi ham qo'llanildi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar bilan olib borilgan dars jarayonlari, bahs-munozaralar hamda amaliy mashg'ulotlar davomida bolalardagi qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlik xususiyatlari haqida bildirilgan fikrlar o'rganildi.

Qaysarlik va kreativ rivojlanish

Qaysarlik bolalarda uchraydigan tabiiy psixologik xususiyatlardan biridir.

Ko'pincha bu xususiyat tarbiyaga bo'ysunmaslik sifatida talqin qilinadi.

Ammo ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qaysarlikning ijobiy jihatlari ham mavjud.

Qaysar bolalar odatda o'z qarashlarini qat'iyat bilan himoya qiladi.

Ular muammoli vaziyatlarda tez taslim bo'lmaydi va muqobil yechimlar izlashga harakat qiladi. Bu esa ularda muammolarni ijodiy yondashuv orqali hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar bolalik davrida qaysarlik xususiyatiga ega bo'lgan shaxslar kelajakda innovatsion sohalarda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Mustaqillik va ijodiy fikrlash

Mustaqillik bolalar rivojlanishida muhim psixologik omil hisoblanadi.

Mustaqil bolalar o'z fikrlarini erkin ifodalashga intiladi va yangi g'oyalarni sinab ko'rishdan qo'rqmaydi. Mustaqil fikrlaydigan bolalar tashqi bosimdan kamroq ta'sirlanadi. Ular o'z qarashlariga asoslanib qaror qabul qilishga odatlanadi. Bu esa ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ko'plab mashhur olimlar va ixtirochilar ham mustaqil fikrlash qobiliyati bilan ajralib turgan. Masalan, Albert Enshtein bolalik davrida ham an'anaviy fikrlashdan farq qiladigan yondashuvlarga ega bo'lgan.

Yolg'izlik va tafakkur rivoji

Yolg'izlik ko'pincha salbiy holat sifatida baholanadi. Ammo ayrim tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'lum darajadagi yolg'izlik ijodiy fikrlash jarayonini kuchaytirishi mumkin.

Yolg'iz qolgan shaxslar o'z fikrlarini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa yangi g'oyalar paydo bo'lishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Nikola Tesla ham o'z tadqiqotlarida yolg'izlikning ijodiy fikrlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Pedagogik kuzatuvlar

Pedagogik faoliyatim jarayonida ham ushbu xususiyatlarning namoyon bo'lishini kuzatdim. Maktabgacha ta'lim yo'nalishiga dars berish jarayonimda bo'lajak tarbiyachilar bilan olib borilgan bahs-munozaralar davomida ular pedagogik amaliyot jarayonida bolalarda qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlik kabi xususiyatlar ko'pincha mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv bilan bog'liqligini ta'kidlaganlar.

Shuningdek, kundalik hayotiy kuzatuvlarim ham ushbu xususiyatlarning bolalar rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qaysarlik, mustaqillik va yolg'izlik bolalarning kreativlik va ijodiy rivojlanishida muhim omillar hisoblanadi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega:

1. Qaysarlik

Qaysar bolalar o'z qarashlarini qat'iyat bilan himoya qilishadi, boshqalarning fikridan cheklanmaydi. Qaysarlik bolalarda kuchli iroda, mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular murakkab muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni afzal ko'rishadi.

2. Yolg'izlik va ijodiy fikrlash

Yolg'izlik yuqori IQ va ijodiy salohiyatga ega shaxslar uchun ijodiy fikrlashni kuchaytiruvchi shart-sharoit yaratadi. Nikola Tesla, Albert Einstein va boshqa mashhur ixtirochilar tajribalari shuni ko'rsatadiki, yolg'iz qolish tashqi bosim va chalg'ituvchi omillardan xoli bo'lish, yangi va original g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Yolg'izlik ijtimoiy cheklanish emas, balki ichki fikrlarni rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish uchun imkoniyatdir.

3. Mustaqillik va innovatsion qarorlar

Mustaqil bolalar o'z qarashlarini mantiq va aqli yondashuv orqali amalga oshiradilar.

Mustaqillik bolalarga o'zlarining ijodiy yechimlarini sinab ko'rish va yangi, noan'anaviy yondashuvlarni kashf etish imkonini beradi. Bu xususiyatlar ularga kelajakda yetakchi, ijodiy va innovatsion shaxs sifatida shakllanishga yordam beradi.

4. Ota-ona va pedagoglarning roli

Bolalarning qaysarlik va mustaqilligini konstruktiv yo'nalishda rivojlantirish zarur.

Majburlash yoki qat'iy cheklovlar o'rniga, ota-ona va pedagoglar sabr-toqat, muloqot va ijodiy yechimlarni rag'batlantirish orqali bolalarning kreativlik salohiyatini oshirishlari mumkin.

Shu yo'l bilan, bolalar o'z hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirgan holda, kelajakda muhim innovatsion va ijodiy yutuqlarga erishadi.

5. Amaliy xulosa

Qaysarlik, yolg'izlik va mustaqillikning ijobiy tomoni – bu shaxsiy kreativlik va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilishi. Ularni to'g'ri yo'naltirish orqali bolalar va yoshlar kelajakda muhim ilmiy, san'at yoki biznes sohalarida innovatsion yutuqlarga erishishi mumkin.

Shu bilan birga, ota-onalar va pedagoglar bu jarayonda "mentoring" vazifasini bajarib, bolalarning ijodiy energiyasini konstruktiv va maqsadga yo'naltirilgan shaklda rivojlantirishlari lozim.

Shunday ekan, agar bolangiz yolg'iz qolishni yoqtirsa, darhol unga "odamovi" degan sifatni tirkamang. Balki uning yolg'izligi yuksak aql- zakovatidandir! Yolg'izlikka moyillik hamisha ham salbiy illat emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, farzandingiz tengdoshlari oddiy narsalar bilan vaqtini o'tkazayotgan vaqtda, sizning farzandingiz yolg'izlikda g'ayrioddiy muvaffaqiyatlar uchun zamin yaratayotgan bo'lishi mumkin. Faqat bunda jiddiy e'tibor berish kerak bo'lgan jihat farzandingizni o'ziga bo'lgan ishonchi yuqorimi, ya'ni yolg'izlik unga yaxshi ta'sir qilmoqdam?

Shuni aniqlab olish kerak. Agar farzandingizda o'ziga bo'lgan ishonch past bo'lsa, bu jarayon depressiya kabi halokatli his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi va buning oqibati yomon bo'lishi mumkin.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, qaysarlik bolalarda qat'iyat va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Mustaqillik esa ijodiy fikrlash va innovatsion g'oyalarni rivojlantiradi.

Ma'lum darajadagi yolg'izlik esa chuqur tafakkur jarayonini kuchaytirib, yangi g'oyalar paydo bo'lishi uchun imkon yaratadi.

Demak, qaysarlik, yolg'izlik va mustaqillik shaxsning ijodiy muvaffaqiyatini bashorat qiluvchi muhim psixologik omillar hisoblanadi. Ularni tushunish va qo'llab-quvvatlash bolalarning kelajakdagi kreativ va innovatsion yutuqlarga erishish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashirov, O. (2020). Bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti.
2. Mo'min Sekman Dr. Bahar Erish. Bolalar muvaffaqiyatga qanday erishadilar? Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2022.
3. O'.A.Ashirova. Yolg'izlikning bola muvaffaqiyati va aqliy faoliyatiga ta'siri. Maqola. 2023
4. Qodirov, Sh. (2018). Bolalar psixologiyasi va ularning ijodiy salohiyati. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Lehrer, J. (2012). Tasavvur qiling: Kreativlik qanday ishlaydi. Houghton Mifflin Harcourt.
6. Meric, J. (2010). Daho jamiyat: Kreativlik va yolg'izlik. Oxford University Press.
7. Shopenhauwer, A. (1994). Yolg'izlik va kreativlik bo'yicha tadqiqotlar. Cambridge University Press.
8. Terman, L. M., & Oden, M. H. (1947). Genlar va daho: Genetik tadqiqotlar. Stanford University Press.
9. Gladwell, M. (2008). Outliers: Muvaffaqiyat hikoyasi. Little, Brown and Company.
10. Goleman, D. (1995). Emotsional intellekt. Bantam Books.